Bugungi kunda odam savdosi transmilliy jinoyatchilikning eng xavfli va yuqori darajada latent shakllaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu jinoyat turi insonning asosiy huquq va erkinliklarini poymol etishi, shaxsni iqtisodiy va jismoniy ekspluatatsiya obyektini sifatida ko'rish bilan alohida xavf tug'diradi. Odam savdosi ko'pincha majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya, noqonuniy xizmat ko'rsatish, qarzga botirish orqali qaramlikka tushirish kabi shakllarda namoyon bo'ladi. Mazkur jinoyatning murakkabligi shundaki, u ko'pincha yashirin tarzda amalga oshiriladi va jabrlanuvchilar turli ijtimoiy, iqtisodiy yoki psixologik omillar sababli huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilishdan cho'chiydi.

Migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlik, avvalo, migrantlarning zaif huquqiy va ijtimoiy holati bilan izohlanadi. Migrantlar, ayniqsa, noqonuniy maqomda bo'lgan shaxslar ko'pincha davlat himoyasidan chetda qoladi, mehnat shartnomalarining yo'qligi yoki noqonuniy vositachilar orqali ishga joylashishi ularni ekspluatatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, axborot yetishmovchiligi, til bilmaslik, mahalliy qonunchilikdan bexabarlik va ijtimoiy izolyatsiya migrantlarning huquqiy himoyasini yanada zaiflashtiradi. Shu jihatdan, migratsiya jarayonlari odam savdosi jinoyati uchun "risk zonasi" sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odam savdosining ildizlari chuqur ijtimoiy-iqtisodiy omillarga borib taqaladi. Xususan, ishsizlik, kambag'allik, daromadlar o'rtasidagi keskin tafovut, ta'lim darajasining pastligi va gender tengsizlik kabi omillar shaxslarni migratsiyaga undaydi va shu orqali ularning odam savdosiga tushib qolish xavfini oshiradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlardan rivojlangan davlatlarga yo'naltirilgan migratsiya oqimlari ushbu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiy jihatdan zaif qatlam vakillari yaxshiroq hayot izlab, ko'pincha xavfli va noqonuniy yo'llarni tanlashga majbur bo'ladi.

Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi ham odam savdosining yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg'on ish takliflari, o'qish yoki nikoh orqali chet elga chiqish va'dalari keng tarqalib, bu esa odam savdosi bilan shug'ullanuvchi jinoiy guruhlar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Raqamli makonning nazorat qilinishi murakkabligi ushbu jinoyat turini aniqlash va oldini olishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan odam savdosiga qarshi kurashish borasida qator muhim huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo'lib, ular orasida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan universal normalar alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikni ushbu xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Chunki odam savdosi aksariyat hollarda transmilliy xarakterga ega bo'lib, uni samarali bartaraf etish faqatgina kompleks va muvofiqlashtirilgan yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur maqolaning dolzarbligi shundaki, unda migratsiya jarayonlari va odam savdosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu ikki hodisa o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, migratsiya jarayonlarining odam savdosiga ta'sir mexanizmlarini ochib berish hamda mavjud muammolarni hal etishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar: migratsiya jarayonlarining nazariy-huquqiy asoslarini o'rganish; odam savdosi jinoyatining mohiyati va shakllarini tahlil qilish; migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni kriminologik jihatdan asoslash; xalqaro tajriba va milliy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish; ushbu sohada mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish belgilab olindi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, statistik ma'lumotlarni umumlashtirish, mantiqiy tahlil va kriminologik usullardan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi murakkab o'zaro bog'liqlik har tomonlama o'rganildi.

Asosiy qism

Migratsiya – shaxslarning ma'lum bir hududdan boshqa hududga vaqtinchalik yoki doimiy yashash, ishlash yoki boshqa maqsadlarda ko'chib o'tish jarayonidir. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda migratsiya iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy omillar ta'sirida shakllanuvchi murakkab jarayon sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, globalizatsiya sharoitida migratsiya oqimlari yanada faollashib, davlatlar o'rtasidagi mehnat resurslari harakatini kuchaytirmoqda. Mehnat migratsiyasi – mehnat qilish maqsadida o'zining doimiy yashab turgan manzilidan boshqa manzilga borish. Xuddi shu maqsadda o'z davlatidan boshqa bir davlatga borish xalqaro mehnat migratsiyasi deyiladi (Saidov, 2016).

Migratsiyaning asosiy turlariga ichki va tashqi migratsiya, vaqtinchalik va doimiy migratsiya, mavsumiy, qatnovli, shuningdek, qonuniy va noqonuniy migratsiya kiradi. Mamlakat ichida, ya'ni biror hududdan boshqa bir hududga (sanoat rivojlangan, ishchi kuchiga muhtoj) borib ishlash ichki migratsiya hisoblansa, tashqi migratsiya bu bir mamlakatdan ikkinchi bir mamlakatga ishlab pul topish maqsadida chiqishdir.

Vaqtinchalik va doimiy migratsiya – borgan manzilida (xorijiy davlat) odatda doimiy ravishda ishlab, o'sha yerda uzoq muddat qolib ketish. Bunda ayrim shaxslar o'sha mamlakat fuqaroligini olsa, ba'zilar yashash va mehnat qilish uchun beriladigan ruxsatnomalar bilan kifoyalanadi. Vaqtinchalik migratsiya esa borgan mamlakatida shaxsning bir yildan olti yilgacha bo'lgan muddatda yashab mehnat qilishi hisoblanadi. Ushbu muddat turli davlatlar qonunchiligida turlicha belgilangan bo'lishi mumkin.

Mavsumiy migratsiya – qishloq xo'jaligi, baliqchilik, qurilishning ayrim jabhalari, xizmat ko'rsatish sohasidagi migratsiya mavsumiy, muayyan fasl bilan bog'liq xususiyatga ega bo'lib, aynan shu sohalarda mehnat qiluvchi migrantlar migratsiyasi. Bu dunyoda eng ko'p tarqalgan migratsiya turi hisoblanadi.

Qatnovli migratsiya (chegaraga tutashgan) mehnat migratsiyasi – bir davlatdan ikkinchi davlatga kundalik qatnab, mehnat qilish. Bunda asosan ishchi migrantlar qo'shni mamlakatga borib kelib ishlaydi.

Qonuniy va noqonuniy migratsiya – migrantning mehnati mehnat shartnomasi bilan rasmiylashtirilgan bo'lsa, ushbu mehnat qonuniy migratsiya asosiga qurilgan (Gallagher, 2017), agarda aksincha bo'lsa, ya'ni xorijga chiqib ishlayotgan shaxsning mehnati mehnat shartnomasi bilan rasmiylashtirilib, ushbu shartnoma asosida unga haq to'lanmasa, bu noqonuniy migratsiya hisoblanadi.

Shu o'rinda aynan noqonuniy migratsiya shakli odam savdosi jinoyati bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlash lozim. Chunki noqonuniy migratsiya kanallari orqali harakatlanayotgan shaxslar huquqiy himoyadan mahrum bo'lib, jinoiy guruhlar ta'siriga tez tushib qoladi (Abdullayev, 2021). Umumiy olib qaralganda ham noqonuniy migratsiya hujjatlashtirilmagan, qonunlar chetlab o'tilgan migratsiya bo'lib, odam savdosi qurbonlarini eng yaxshi shakllantirib beruvchi kanal bo'lib xizmat qiladi.

Migratsiya jarayonlarini huquqiy tartibga solish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Milliy qonunchilikda migratsiya bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, noqonuniy migratsiyani cheklash va xavfsizlikni mustahkamlash maqsad qilinadi. Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayonlarini to'liq nazorat qilish murakkab bo'lib, aynan shu holat odam savdosining yuzaga kelishiga imkon yaratadi.

Odam savdosi – shaxsni aldash, majburlash yoki boshqa noqonuniy vositalar orqali ekspluatatsiya qilish maqsadida yollash, tashish, yashirish yoki qabul qilish bilan bog'liq jinoyatdir. Odamlarni ekspluatatsiya qilish uchun jalb qilish jinoyati deya tavsiflanadigan ijtimoiy xavfli qilmish murakkab jarayondir. Ushbu jinoyat xalqaro huquqda ham, milliy qonunchilikda ham alohida og'ir jinoyat sifatida e'tirof etiladi. Bu jinoyat murakkabligining eng birinchi asosi transchegaraviy jinoyat ekanligi, deydi bo'lsak, jinoiy guruhlar tomonidan oldindan til biriktirilib amalga oshirilishi, jabrlanuvchining murojaat qilishga qo'rqishi va shu kabi boshqa dalillar uning murakkabligini mustahkamlaydi.

Odam savdosi turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: majburiy mehnat, jinsiy ekspluatatsiya, majburiy nikoh, organ savdosi, qarz evaziga qaramlik (*debt bondage*). Mazkur jinoyatning o'ziga xos jihati shundaki, u ko'pincha yashirin (latent) xarakterga ega bo'ladi. Jabrlanuvchilar qo'rqish, uyat hissi yoki huquqni muhofaza qiluvchi organlarga ishonchsizlik sababli murojaat qilmaydi. Natijada jinoyatning haqiqiy ko'lami rasmiy statistikadan ancha yuqori bo'lishi mumkin.

Migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlik ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularning o'zaro ta'siri bir nechta omillar orqali namoyon bo'ladi. Eng avvalo, migratsiya jarayonida shaxsning huquqiy maqomi uning xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Noqonuniy migrantlar ko'pincha rasmiy ish bilan ta'minlanmaydi va noqonuniy mehnat bozoriga kirib qoladi. Bu esa ularni ekspluatatsiya qilish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shuningdek, migratsiya jarayonida vositachilar (rekruterlar) muhim rol o'ynaydi. Ularning ayrimlari noqonuniy faoliyat yuritib, migrantlarni aldash yo'li bilan odam savdosiga jalb etadi. Masalan, yuqori maoshli ish va'dasi bilan chet elga olib chiqilgan shaxslar keyinchalik majburiy mehnat yoki jinsiy ekspluatatsiyaga duch keladi (Zirogiannis, 2020). Aynan shu ikki maqsad orqali insonlarni odam savdosi qurboniga aylantirish holatlari butun dunyoda ko'p uchraydi.

Migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlikni quyidagi omillar orqali izohlash mumkin:

- iqtisodiy tengsizlik (mamlakatning turli hududlaridagi turlicha iqtisodiy vaziyat, ayrim hududlar aholisining boy va farovon, ayrim hudud aholi esa o'ta qashshoq hayot kechirishi);
- ishsizlik darajasi (aholining ish bilan ta'minlanmagan yoki o'zini o'zi band qilmagan qismi ko'pligi);
- huquqiy savodxonlikning pastligi (xorijga ishga taklif qilinayotganda taklif etuvchilarning rasmiy hujjatlarini surishtirish yoki mehnat shartnomasi tuzishni talab qilmaslik);
- noqonuniy migratsiya infratuzilmasining mavjudligi (mamlakatda noqonuniy mehnat migratsiyasini olib boruvchi tashkilotlar va guruhlarining mavjudligi, bunga davlat idoralarning tegishli chora ko'rishda sustligi);

– korrupsiya omillari (fuqarolarni xorijga yuboruvchi firmalarga ularni tekshirmasdan turib litsenziyalar berish, xorijga noqonuniy chiqishga pora evaziga yo'l qo'yish va h.k.).

Odam savdosining yuzaga kelishida kriminologik omillar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu omillar orasida ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, kambag'allik, ta'lim darajasining pastligi va gender tengsizlik muhim o'rin tutadi.

Xavf guruhlariga quyidagilar kiradi:

- ayollar va qizlar;
- voyaga yetmaganlar;
- ishsiz shaxslar;
- noqonuniy migrantlar;
- ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar.

Ayniqsa, yoshlar orasida chet elga chiqish istagi yuqori bo'lib, ular ko'pincha firibgarlarning tuzog'iga tushib qoladi (United Nations Office on Drugs and Crime, 2022). Bu esa profilaktika ishlarini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Xalqaro miqyosda odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Bu hujjatlarga 1949-yil 2-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 317(YI)-sonli rezolyutsiya bilan ma'qullangan va 1951-yil 25-iyulda kuchga kiritilgan "Odam savdosi va tanfurushlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi konvensiya hamda "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi konvensiyalarini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu ikki yirik hujjat ham odam savdosiga oid masalalarni xalqaro darajada tartibga solishga yo'naltirilgan bo'lib, mamlakatimiz 2003-yil 12-dekabrda "Odam savdosi va tanfurushlikning uchinchi shaxslar tomonidan ishlatilishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi konvensiya, 2008-yil 8-aprelda "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi konvensiyaga qo'shilgan. Ushbu hujjatlar davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash, jabrlanuvchilarni himoya qilish va jinoyatchilarni jazolashga qaratilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, migratsiyani qonuniylashtirish, ishga joylashtirish tizimini shaffof qilish, axborot kompaniyalarini kuchaytirish odam savdosining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya siyosati odam savdosiga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Samarali migratsiya siyosati: noqonuniy migratsiyani kamaytiradi, migrantlarning huquqlarini himoya qiladi, xavfsiz migratsiya kanallarini yaratadi (Weitzer, 2021). To'g'ri, migratsiya siyosati odam savdosiga qarshi kurashishda quyidagi jihatlar orqali muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Birinchidan, u jinoyat uchun imkoniyatlarni qisqartiradi. Qonuniy migratsiya imkoniyatlari kengaygan sari noqonuniy vositachilar va jinoyatchilar faoliyati torayadi. Ikkinchidan, u xavf guruhlarini kamaytiradi. Ijtimoiy himoya va axborot darajasi oshgan migrantlar odam savdosiga kamroq duch keladi. Uchinchidan, u jabrlanuvchilarni aniqlash va rehabilitatsiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Davlat organlari va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik orqali odam savdosi qurbonlariga yordam ko'rsatish tizimi yaxshilanadi. To'rtinchidan, u profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytiradi. Migratsiya siyosati orqali aholini ogohlantirish va himoya qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish ham muhimdir.

Amaliyotda jinoyatlarni aniqlashning murakkabligi, jabrlanuvchilarning murojaat qilmasligi, huquqni qo'llashdagi kamchiliklar, statistik ma'lumotlarning yetarli emasligi kabi muammolar kuzatiladi. Ularni hal etish uchun huquqiy islohotlar o'tkazish, profilaktika choralarini kuchaytirish, aholining huquqiy ongini oshirish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Bugungi kunda internet orqali odam savdosi keng tarqalmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali yolg'on ish takliflari berilishi migrantlarni aldashing asosiy vositasiga aylangan. Shu bois kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish ham odam savdosi jinoyatining oldini olishda muhim harakat hisoblanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlik chuqur va ko'p qirrali bo'lib, uni faqatgina kompleks yondashuv orqali hal etish mumkin. Migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va profilaktika choralari kuchaytirish ushbu jinoyat turining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (Aronowitz, 2019).

Mazkur maqola doirasida migratsiya jarayonlari va odam savdosi o'rtasidagi murakkab va ko'p qirrali bog'liqlik ilmiy asosda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy globalizatsiya va mehnat migratsiyasining rivojlanishi yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish bilan birga, ayrim migrantlarni odam savdosiga nisbatan zaiflashtiradi (Nazarova, 2023). Ayniqsa, noqonuniy migratsiya kanallari, vositachilarning noqonuniy faoliyati va migrantlarning huquqiy savodxonligi pastligi odam savdosi jinoyatining yuzaga kelishiga bevosita sabab bo'ladi.

Migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq etishda bir nechta asosiy tendensiyalar aniqlanadi. Birinchidan, iqtisodiy tengsizlik va ish bilan ta'minlanishning noaniqligi migrantlarni xavfli migratsiya yo'llariga undaydi. Masalan, 2019–2022-yillar davomida Markaziy Osiyo mamlakatlaridan Yevropa Ittifoqi davlatlariga ishlash maqsadida jo'natilgan migrantlar orasida 15–20 foizi inson savdosiga duch kelgani aniqlangan (United Nations Office on Drugs and Crime, 2022). Bu holat shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayonlarida huquqiy himoya va shaffof mexanizmlarning yetarli emasligi jabrlanuvchilar xavfini oshiradi.

Ikkinchidan, migrantlarning yosh, jins va ijtimoiy tarkibi odam savdosiga nisbatan zaiflik darajasini belgilaydi. Ayollar va qizlar ko'pincha jinsiy ekspluatatsiya obyekti sifatida tanlanadi, bolalar esa majburiy mehnat yoki ishlashga majburlash orqali ekspluatatsiyaga uchraydi. Misol uchun, 2021-yilda O'zbekiston va Qozog'iston o'rtasida amalga oshirilgan migratsiya oqimlari tahlil qilinganda, 12 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan qizlar hamda ayollar chet elga ishga ketish jarayonida kamsituvchi shartlarga duch kelgani aniqlangan. Bu esa huquqni muhofaza qiluvchi organlar va profilaktika tizimini kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi.

Uchinchidan, vositachilar va "rekruterlar" faoliyati odam savdosining asosiy mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pincha ular migrantlarni yuqori daromad va ish bilan va'da berib aldash orqali odam savdosiga jalb qiladi. Misol tariqasida, 2020-yilda Rossiyada noqonuniy ishlash uchun jalb qilingan Markaziy Osiyo migrantlarining 18 foizi majburiy mehnatga duch kelgani kuzatilgan. Shu bilan birga, firibgarlik va manipulyatsiya vositalari orqali migrantlar qarzga botiriladi, bu esa ularni qarzga qaramlik orqali ekspluatatsiya qilish mexanizmini yaratadi.

Odam savdosiga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik alohida ahamiyatga ega. BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi konvensiyasini to'ldiruvchi odam savdosining, ayniqsa, ayollar va bolalar savdosining oldini olish hamda unga chek qo'yish va uning uchun jazolash haqidagi bayonnomasi (United Nations General Assembly, 2000) va boshqa xalqaro hujjatlar davlatlarni odam savdosiga qarshi choralarni kuchaytirishga undaydi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikda migratsiya va odam savdosini tartibga solish mexanizmlari ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, Qozog'iston va O'zbekiston o'rtasidagi bitimlar migrantlarni himoya qilish, shaffof ishga joylashtirish va xavfsiz migratsiya kanalini yaratish bo'yicha samarali mexanizm sifatida baholanishi mumkin.

Shuningdek, xalqaro tajribada xavfsiz migratsiya mexanizmlari, huquqiy maslahat xizmatlari va profilaktika tadbirlari odam savdosining oldini olishda samarali vosita sifatida ko'rsatildi. Masalan, Niderlandiya va Germaniyada migrantlarga maxsus himoya dasturlari taqdim etilib, ular firibgarlik va ekspluatatsiyadan saqlanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa milliy qonunchilik va migratsiya siyosatini takomillashtirish uchun model bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Kriminologik nuqtayi nazardan, odam savdosi jinoyati ko'pincha ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, kambag'allik va past huquqiy savodxonlik fonida yuzaga keladi. Migratsiya jarayonlarida ushbu omillar kuchayadi. Misol uchun, iqtisodiy qiyinchiliklar sababli yoshlar Yevropa va Rossiyaga ish

izlab ketganda ular yuqori xavf guruhiga kiradi. Bu jarayonda davlat organlari va NNTlari tomonidan amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik va ijtimoiy tarmoqlar orqali odam savdosining yangi shakllari paydo bo'lgani ilmiy tahlilning muhim jihati hisoblanadi. Internet orqali yolg'on ish takliflari berilishi, migrantlarni aldash va ekspluatatsiyaga jalb qilish holatlari ko'p uchraydi. Shu bois, zamonaviy texnologiyalarni nazorat qilish va profilaktika choralarini kuchaytirish talab etiladi.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, samarali profilaktika quyidagi choralarini o'z ichiga oladi:

- migratsiya jarayonlarini huquqiy va shaffof tartibga solish;
- migrantlarni huquqiy savodxonlikka o'rgatish, ularni huquqiy maslahat xizmatlari bilan ta'minlash;
- xavfsiz migratsiya kanallarini rivojlantirish;
- davlatlararo hamkorlikni kuchaytirish va ma'lumot almashish;
- kiberxavfsizlikni mustahkamlash yordamida internet orqali sodir bo'ladigan jinoyatlarni kamaytirish.

Bu choralar asosida migrantlar xavfsiz muhitda ishlash va yashash imkoniyatiga ega bo'lib, odam savdosiga nisbatan zaiflik darajasi sezilarli darajada pasayadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayonlarini chuqur tahlil qilmasdan odam savdosiga qarshi samarali kurashish mumkin emas. Migratsiya va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda anglash quyidagi jihatlar bo'yicha alohida ahamiyat kasb etadi:

nazariy jihat – migratsiya jarayonlari va odam savdosi o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlash, kriminologik mexanizmlarni yoritish;

huquqiy jihat – milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish, huquqni qo'llash samaradorligini oshirish;

amaliy jihat – profilaktika choralarini kuchaytirish, xavfsiz migratsiya mexanizmlarini rivojlantirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini mustahkamlash.

Misol tariqasida aytish mumkinki, 2021–2023-yillarda Markaziy Osiyo migrantlari orasida amalga oshirilgan monitoring huquqiy maslahat va xavfsiz migratsiya dasturlarini qo'llash orqali odam savdosiga uchragan migrantlar soni 25–30 foizga kamayganini ko'rsatdi. Bu esa ilmiy jihatdan migratsiya siyosati va odam savdosini oldini olishning samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik va ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshiriladigan profilaktika tadbirlari ham odam savdosini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan, onlayn xabardorlik kampaniyalari va mobil ilovalar orqali migrantlar yolg'on ish takliflari va firibgarlikdan ogohlantiriladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, migratsiya jarayonlarining tartibga solinmaganligi, axborot yetishmovchiligi va nazorat mexanizmlarining zaifligi odam savdosining kengayishiga sharoit yaratmoqda. Shu munosabat bilan quyidagi ilmiy asoslangan qonunchilik takliflari ilgari suriladi:

birinchidan, migratsiya va odam savdosiga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tizimlashtirish va yagona kodeks shakliga keltirish zarur. Amaldagi qonunlar tarqoq holda bo'lib, ularni yagona konseptual hujjat asosida birlashtirish huquqni qo'llash amaliyotida aniqlik va samaradorlikni oshiradi;

ikkinchidan, noqonuniy migratsiya uchun javobgarlikni differensiallashtirish lozim. Ya'ni majburiy mehnat yoki aldov natijasida migratsiyaga jalb etilgan shaxslar jazodan ozod etilib, ularning huquqiy maqomi jabrlanuvchi sifatida mustahkamlanishi kerak. Bu yondashuv xalqaro standartlarga mos keladi va yashirin jinoyatlarni aniqlash imkonini kengaytiradi;

uchinchidan, mehnat migratsiyasi sohasida vositachilik faoliyatini qat'iy litsenziyalash va nazorat qilish tizimini kuchaytirish zarur. Ayniqsa, xorijda ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi subyektlar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish orqali firibgarlik va ekspluatatsiya xavfini kamaytirish mumkin;

to'rtinchidan, odam savdosi qurbonlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash lozim. Jumladan, ularga bepul yuridik yordam, psixologik rehabilitatsiya va ijtimoiy moslashuv dasturlarini

qonunchilik darajasida kafolatlash zarur. Bu esa jabrlanuvchilarning jamiyatga qayta integratsiyasini ta'minlaydi;

beshinchidan, davlatlararo hamkorlikni kengaytirish zarur. Xususan, migratsiya oqimlari yuqori bo'lgan davlatlar bilan ikki tomonlama bitimlar tuzish, tezkor axborot almashish tizimini joriy etish va qo'shma tergov amaliyotlarini rivojlantirish lozim.

Migratsiya siyosatini liberallashtirish bilan bir qatorda, uning xavfsizlik jihatlarini mustahkamlash, inson huquqlarini ustuvor qo'ygan holda kompleks yondashuvni joriy etish odam savdosiga qarshi kurashishda eng samarali yo'l hisoblanadi. Yuqoridagi takliflarning amaliyotga joriy etilishi nafaqat jinoyatchilik darajasini kamaytiradi, balki fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

Migratsiya jarayonlari va odam savdosi o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish orqali quyidagi amaliy va nazariy natijalarga erishish mumkin: migratsiya jarayonlarini tartibga solish va xavfsiz mexanizmlarni joriy etish odam savdosining oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Milliy qonunchilik va xalqaro huquqiy normalarni uyg'unlashtirish, jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini takomillashtirish zarur. Profilaktika choralarini kuchaytirish, huquqiy xabardorlikni oshirish va davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish odam savdosiga qarshi samarali kurashishni ta'minlaydi. Kiberxavfsizlik va raqamli texnologiyalarni nazorat qilish orqali yangi xavf-xatarlarni kamaytirish mumkin.

Migratsiya jarayonlarini chuqur o'rganmasdan turib, odam savdosi jinoyatiga qarshi samarali kurashish mumkin emas. Tadqiqot natijalari ushbu ikki hodisaning o'zaro bog'liqligini ilmiy asosda ochib berish orqali jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Migratsiya va odam savdosi masalalari o'rtasidagi ilmiy asoslangan tahlil nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb bo'lib, mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar uchun samarali strategiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

REFERENCES

- Abdullayev, A. (2021). Odam savdosiga qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy asoslari [Criminal-legal foundations of combating human trafficking]. *Review of Law Sciences*, (4), 45–52.
- Allain, J. (2018). *Slavery in international law: Of human exploitation and trafficking*. Martinus Nijhoff Publ.
- Aronowitz, A. (2019). *Human trafficking, human misery: The global trade in human beings*. Praeger Security International.
- Bales, K. (2016). *Modern slavery: The secret world of 27 million people*. Oneworld Publications.
- Gallagher, A. T. (2017). *The international law of human trafficking*. Cambridge University Press.
- Kangaspunta, K. (2020). Mapping the inhuman trade: Preliminary findings of the database on trafficking in human beings. *Forum on Crime and Society*, 10(1), 1–16.
- Karimov, M. (2021). *Odam savdosiga qarshi kurashishning huquqiy asoslari va ularning takomillashuvi* [Legal foundations of combating human trafficking and their improvement]. Adolat.
- Laczko, F., & Gramegna, M. (2020). Developing better indicators of human trafficking. *International Migration*, 58(6), 4–17.
- Nazarova, D. (2023). Odam savdosi jinoyatining ijtimoiy-huquqiy jihatlarini [Socio-legal aspects of the crime of human trafficking]. *Science and Development*, (3).
- Republic of Uzbekistan. (2020, August 17). *Law "On combating trafficking in persons" (No. LRU-633)*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/4953314>
- Republic of Uzbekistan. (2024). *Criminal Code of the Republic of Uzbekistan*. Adolat.
- Rustambayev, M. Kh. (2018). *O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi: shaxsga qarshi jinoyatlar. Tinchlik va xavfsizlikka qarshi jinoyatlar* [Course of criminal law of the Republic of Uzbekistan: Crimes against

the person. Crimes against peace and security]. National Guard Military Technical Institute of the Republic of Uzbekistan.

Saidov, A. (2016). *Odam savdosi va unga qarshi kurashish: mehnat migratsiyasidagi shaxslar uchun qisqacha amaliy qo'llanma* [Human trafficking and combating it: A brief practical guide for persons in labor migration]. Baktria Press.

Shelley, L. (2018). *Human trafficking: A global perspective*. Cambridge University Press.

Surtees, R. (2019). Trafficked persons as victims and witnesses. *Anti-Trafficking Review*, (12), 1–17.

United Nations General Assembly. (2000). *Protocol to prevent, suppress and punish trafficking in persons, especially women and children, supplementing the United Nations Convention against Transnational Organized Crime*. United Nations. <https://www.unodc.org>

United Nations Office on Drugs and Crime. (2022). *Global report on trafficking in persons 2022*. United Nations. <https://www.unodc.org>

United Nations Office on Drugs and Crime. (2023). *Toolkit to combat trafficking in persons*. United Nations. <https://www.unodc.org>

Van der Anker, C. (2019). *The political economy of new slavery*. Palgrave Macmillan.

Weitzer, R. (2021). Human trafficking and contemporary slavery. *Annual Review of Sociology*, 47, 1–22.

Ziogiannis, N. (2020). Criminal law responses to trafficking in human beings. *European Journal of Crime, Criminal Law and Criminal Justice*, 28(2), 123–142.

**O'ZBEKISTON
QONUNCHILIGI TAHLILI**

ILMIY-TAHLILIIY JURNAL
2026-YIL 2-SON

**ОБЗОР
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА**

НАУЧНО-АНАЛИТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
2026 ГОД № 2

**UZBEKISTAN
LAW REVIEW**

SCIENTIFIC ANALYTICAL JOURNAL
2026 ISSUE 2

VOLUME 3 / ISSUE 2 / 2026

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.3.2.

ISSN 2181-8118

DOI: 10.51788/TSUL.UZLAWREV.